Qoraytirilgan oynalar bundan ming yil oldin ham ishlatilgan

Quva – Farg’ona vodiysini qadimda Qoshg’ar bilan bog’lagan Buyuk Ipak yo’lida joylashgan shaharlardan biri. Arxeolog olimlarning ta’kidlashicha Quva shahriga er. avv. III asrda asos solingan. Xitoy manbalariga ko’ra bu shahar arab bosqiniga qadar Xunmin deb atalgan. O’rta asr Quva shahri esa shaharning qadimgi o’rnida qayta tiklangan va uch qismdan: Ark, Shahriston va Raboddan iborat bo’lgan.





Yodgorlikda arxeologlar tomonidan olib borilgan qazuv ishlari natijasida VII-VIII asrlarga oid buddaviylik ibodatxonasi topilgan bo’lib, buni u yerdan topilgan Buddaning loydan yasalgan haykali va buddviylikka xos bo’lgan boshqa haykalchalar ham tasdiqlaydi. Ushbu ibodatxona respublikamiz hududida aniqlangan sanoqli budda ibodatxonalaridan hisoblanadi.



Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, qadimda Quva shisha va undan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo’yicha yirik hunarmandchilik markazi bo’lgan. Shisha buyumlar nihoyatda yupqa bo’lib ulardan qadah, atir sepkich, qon bosimini tushirishda ishlatilgan alambika, tibbiyot kolbalaridir. Quva ustalari ishlagan shisha buyumlar shakli, bezalishi, rango-rangligi bilan ajralib turgan. Ustalar nafaqat maishiy sohalar uchun balki, qurilish oynalari ham ishlab chiqarganlar. Ular yasagan oynalar derazalar, tuynuklarga qo’yilgan bo’lib, qora ranglilari ham uchraydi. Bu yodgorlikda uzoq yillar arxeologik qazuv ishlari olib borgan arxeolog olim B.Matboboyev O’rta Osiyoning yoz iqlimi sharoitida qoraytirilgan oynalarga bo’lgan ehtiyoj yuqori bo’lganligi va bunday oynalarning yaratilishi maishiy hayotda bundan ming yillar avval ham ishlatilganligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga arxeologlar va numizmatlarning ta’kidlashicha VII-VIII asrlardagi ilk tanga pullar Quvada zarb qilingan.

Quvada VIII-IX asrlarda turar-joylar ikki qavatli qilib qurilganligi arxeologlar tomonidan tasdiqlangan. Quvadan topilgan, ayniqsa sirtiga o’yib tushirilgan va qora bo’yoq bilan yozilgan bir necha turk-runik va arab yozuvi namunalaridan iborat bo’lgan sopol buyumlari diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda ushbu yodgorlikning ham tarixiy va madaniy ahamiyati katta. O’zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda arxeologik yodgorliklar va ularning ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirilishi Quva yodgorligi misolida Farg’ona vodiysiga nafaqat O’zbekiston, balki xorijiy turistlarni o’ziga jalb qilishida alohida ahamiyat kasb etadi.

